

JURNALISTIKADA NEYTRAL YONDASHUVNING INQIROZI: OBYEKTIVLIK VA SUBYEKTIVLIK O'RTASIDAGI CHEGARA

Sevara Rasulova

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15770807>

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jurnalistikada obyektivlik masalasining dolzarbligi tahlil qilinadi. Jay Rosen va Thomas Hanitzschning jurnalistikada obyektivlik borasidagi qarama-qarshi yondashuvlari muhokama etilgan. Rosen jurnalistning shaffof bo'lishi va subyektivlik yondashuvini tan olishi kerakligini ilgari sursa, Hanitzsch esa faktlarga asoslangan, shaxsiy fikrlardan xoli obyektiv jurnalistikani himoya qiladi. Maqolada bugungi jurnalistlar ushbu ikki pozitsiya o'rtasida muvozanat topishi zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: jurnalistika, obyektivlik, subyektivlik, shaffoflik, axborot ishonchliligi, Jay Rosen, Thomas Hanitzsch, raqamli media, jurnalistik tamoyillar, ijtimoiy tarmoqlar.

CRISIS OF A NEUTRAL APPROACH IN JOURNALISM: THE BOUNDARY BETWEEN OBJECTIVITY AND SUBJECTIVITY

Sevara Rasulova

Student of the 1st stage of the University of journalism and
mass communications of Uzbekistan

Annotation. This article explores the issue of objectivity in modern journalism. It discusses the contrasting views of Jay Rosen and Thomas Hanitzsch on the relevance and implementation of objectivity in today's media environment. While Rosen promotes transparency and the acceptance of subjectivity in journalism, Hanitzsch defends traditional objectivity as essential for credibility and truth. The article emphasizes the need for a balance between the two approaches in the practice of journalism today.

Keywords: Journalism, objectivity, subjectivity, transparency, information credibility, Jay Rosen, Thomas Hanitzsch, digital media, journalistic principles, social networks.

Jurnalistika doimiy ravishda axborotni haqqoniy va xolis yetkazish tamoyiliga asoslangan. Biroq, zamonaviy ommaviy axborot vositalari {OAV} va raqamli jurnalistikaning rivojlanishi bilan obyektivlik tushunchasi o'zining dolzarbligini yo'qotib bormoqda. Subyektiv yondashuv, shaxsiy fikr va pozitsiyaning jurnalistik materiallarga singdirilishi natijasida an'anaviy "neytral" jurnalistika inqirozga yuz tutmoqda.

Neytral jurnalistika — bu yangilik yoki voqea haqida muallifning shaxsiy fikr va hissiyotlarisiz, mutlaqo xolis yoritishga asoslangan jurnalistik yondashuvdir. Bunday uslubda yozilgan materiallar faktlarga tayangan holda, turli tomonlarning nuqtayi nazarini teng yoritib, o'quvchiga yakuniy xulosa chiqarish imkonini o'zi beradi. Neytral jurnalist hech qachon bir tomonning g'oyasini ilgari surmaydi va holatni baholamaydi.

Uning asosiy vazifasi — voqeani qanday bo'lsa, shunday yetkazish. Masalan, siyosiy qarama-qarshiliklar haqida yozilayotgan maqolada neytral yondashuv har ikki tomonning pozitsiyasini birdek yoritishni talab qiladi. Shu orqali o'quvchi voqeaga mustaqil baho berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bugungi tezkor axborot oqimi va ijtimoiy tarmoqlarda ko'payib borayotgan subyektiv baholovlar fonida neytral jurnalistika ayniqsa muhim. U nafaqat

axborot ishonchliligini oshiradi, balki jamoatchilikning real holatni tushunishiga ham xizmat qiladi.

Anʼanaviy jurnalistikada obyektivlik tushunchasi: obyektivlik jurnalistikaning asosiy tamoyillaridan biri boʻlib, axborot berishda shaxsiy qarashlaridan xoli boʻlishni nazarda tutadi. Ushbu tushuncha XX asrning boshlarida, OAV ommaviylashishi va bosma nashrlar keng auditoriyaga ega boʻla boshlagan davrda shakllandi. Muhim prinsiplar quyidagilar edi:

1. Xolislik- jurnalist faktlarni shaxsiy yoki siyosiy qarashlardan mustaqil holda yetkazishi kerak.

2. Teng muomala-har qanday mavzuda turli tomonlarning fikri yoritilishi lozim.

3. Tasdiqlangan manbalar- axborot mustahkamlash dallilarga asoslangan boʻlishi zarur.

Ammo bu yondashuv XXI asrda ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy blogerlik va raqamli media taraqqiyoti natijasida keskin oʻzgarib bormoqda. Jay Rosen: obyektiv jurnalistika illuziyami? Amerikalik media olimi Jay Rosen jurnalistik obyektivlik tushunchasini keskin tandiq qiladi. Uning fikricha, mutlaq neytrallik amalda imkonsiz va jurnalist har qanday holatda ham oʻzining individual dunyoqarashi bilan taʼsir oʻtkazadi. U quyidagi fikrlarni ilgari suradi: Jurnalistlar mutlaq neytral boʻlishi mumkin emas. Har qanday jurnalist oʻzining shaxsiy tajribasi va ijtimoiy kontekstga soslanib ishlaydi. Shaffof jurnalistika muhim. Jurnalist shaxsiy fikriga ega ekanligi yashirish oʻrniga, uni ochiq namoyon qilishi kerak.

Ommaviy axborot vositalari auditoriya uchun subyektivlikni yashirmasligi lozim. Chunki jamiyat axborot isʼtemol qilishda turli manbalardan foydalanadi va xolis axborotni mustaqil tahlil qila oladi. Rosen jurnalistikaning anʼanaviy neytrallik modelidan voz kechib, yangi- “Shaffof jurnalistika” tamoyilini ilgari suradi. Uningcha, jurnalistlar oʻz eʼtiqodi va qadiryatlarini ochiq ifodalash orqali ishonchni oshirishi mumkin. Thomas Hanitzsch: obyektivlik jurnalistikaning asosi. Germaniyalik media tadqiqotchisi Thomas Hanitzsch esa Jay Rosenning fikrlariga qarshi pozitsiyada turadi. U jurnalistikada obyektivlikni saqlash hali ham muhimligini taʼkidlaydi va quyidagi fikrlarni ilgari suradi: Jurnalistik obyektivlik-haqiqatni anglash vositasidir.

Agar jurnalistlar shaxsiy fikrlarni faktlarga aralashtirib yuborsa, jurnalistika axborot yetkazish oʻrniga targʻibotga aylanib qoladi. Jurnalistlar faqat dallillarga tayanishi kerak. Haqiqiy jurnalistika shaxsiy fikrlar yoki siyosiy manfaatlardan mustaqil bolishi lozim. Jurnalistik obyektivlikni yoʻqotish ishonchsizlikka olib keladi. Agar ommaviy axborot vositalari xolislik prinsipidan voz kechsa, jamiyat turli manipulyatsiyalar qurboniga aylanishi mumkin. Hanitzschga koʻra, jurnalistikaning ishonchliligi uning faktlarga asoslanganligida. Agar jurnalist oʻz fikrini ommaga singdirishga harakat qilsa, u axborot tarqatish oʻrniga auditoriyani manipulyatsiya qiladi. Ikki olim fikrining oʻxshash jihatlari: Ikkala olim ham jurnalistika jamiyat uchun muhim institut ekanligini eʼtirof etadi. Ikkalasi ham jurnalistikaning kelajagi ijtimoiy tarmoqlar va raqamli media bilan chambarchas bogʻliq ekanligini tan oladi. Rosen ham, Hanitzsch ham jurnalistikaning ishonchliligini oshirish uchun yangi yondashuvlar zarurligini taʼkidlaydi. Farqli fikrlari: Jay Rosenning fikricha, mutlaq obyektivlik amalda imkonsiz, chunki har qanday jurnalist oʻz dunyoqarashi va shaxsiy qarashlari orqali axborotga taʼsir koʻrsatadi. Unga koʻra, jurnalist obyektivlik illyuziyasidan voz kechishi va oʻz pozitsiyasini ochiq koʻrsatishi lozim. Thomas Hanitzsch esa jurnalistik obyektivlikni zaruriy tamoyil deb hisoblaydi. Uningcha, agar jurnalistlar subyektivlik

yondashuvga o'tsa, jurnalistika ishonchsiz manbaga aylanadi va auditoriyani manipulyatsiya qilish xavfi yuzaga keladi.

Jurnalistning roli: Jay Rosen jurnalistni faqat axborot yetkazuvchi emas, balki jamiyatdagi muhim muammolarni tahlil qiluvchi va ularga o'z nuqtai nafari bildiradigan shaxs sifatida ko'radi. Uningcha, jurnalist o'z shaxsiy pozitsiyasini ochiq ko'rsatishi va bu orqali auditoriya bilan ishonchli aloqa o'rnatishi lozim. Thomas Hanitzsch esa jurnalist faqat faktlarga tayanishi va har qanday shaxsiy fikr yoki e'tiqoddan xoli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, jurnalist axborotning aniq va ishonchli bo'lishini ta'minlashi kerak, lekin uni shaxsiy interpretatsiya bilan boyitmasligi lozim.

Axborot sifati va ishonchlilik: Jay Rosenning fikricha, subyektivlik jurnalistika ham ishonchli bolishi mumkin, chunki auditoriya turli manbalar orqali xulosaga kelish manbalar orqali xulosaga kelish imkoniyatiga ega. Unga ko'ra jurnalistning shaffof bo'lishi ishonchni oshiradi va axborotning sifati subyektivlik bilan ham yuqori bo'lishi mumkin. Thomas Hanitzsch esa faqat obyektiv jurnalistika haqiqiy ishonchlilikni ta'minlaydi deb hisoblaydi. Uning fikricha agar jurnalist shaxsiy fikrlarini axborotga qo'shsa, bu jamiyatda noto'g'ri tushunchalar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, Jay Rosen va Thomas Hanitzsch jurnalistik obyektivlik haqida qarama-qarshi fikrlarga ega. Rosen subyektivlik yondashuvni himoya qilib, shaffof jurnalistikani ilgari suradi, Hanitzsch esa an'anaviy obyektivlikni saqlash muhimligini ta'kidlaydi. Bu esa jurnalistikaning kelajakda qanday yo'l tutishi kerakligi borasida global muhokamalarga sabab bo'lib kelmoqda.

Xulosa: zamonaviy jurnalistika tobora shaxsiy fikrlar va subyektivlik yondashuvlar bilan singdirilayotgan bir paytda, obyektivlik masalasi jiddiy muhokama qilinmoqda. Jay Rosen jurnalist obyektiv bololmasligi sababli, uning pozitsiyasi shaffof bo'lishi kerakligini ilgari suradi. Thomas Hanitzsch esa obyektivlikni yo'qotish jurnalistikani manipulyatsiyaga aylantirishini ta'kidlaydi. Bugungi kunda jurnalistlar ushbu ikki yondashuv o'rtasida muvozanat topishlari kerak. Ya'ni, axborot neytral yetkazish bilan birga, auditoriyani haqiqatni tushunishga yo'naltirish lozim. Kelajak jurnalistikasi an'anaviy obyektivlik va zamonaviy shaffoflik o'rtasida qanday yo'l tanlashi, media muhitining yanada rivojlanishiga bo'g'liq bo'ladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rosen, J. (1993). Beyond Objectivity. Nieman Reports. <https://nieman.harvard.edu/articles/beyond-objectivity>
2. Rosen, J. (2006). The People Formerly Known as the Audience. PressThink. http://archive.pressthink.org/2006/06/27/ppl_frmr.html
3. Hanitzsch, T. (2007). Deconstructing Journalism Culture: Toward a Universal Theory. Communication Theory, 17(4), 367-385. <https://doi.org/10.1111/j.1468-2885.2007.00303.x>
4. Hanitzsch, T., Van Dalen, A., & Steindl, N. (2018). Caught in the Nexus: A Comparative and Longitudinal Analysis of Public Service Journalism in the Digital Age. Journalism, 19(3), 354-374. <https://doi.org/10.1177/1464884916679321>
5. Kovach, B., & Rosenstiel, T. (2014). The Elements of Journalism: What Newspeople Should Know and the Public Should Expect (3rd ed.). Three Rivers Press.